

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.16908559>

## TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA FOND BOZORINING AHAMIYATI

*Raximboyev Sardor Qaxramonovich*

*Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi boshqarma boshlig'i*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tijorat banklarining qimmatli investitsion jozibadorligini oshirishda banklarning fond bozoridagi faoliyatini takomillashtirish tamoyillariga asoslangan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor sharoitida uning tarkibiy qismi hisoblanadigan qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarni shakllantirish kabi bir qancha omillarga bog'liqligi keltirib o'tilgan. Shuningdek, moliya bozorining ishtirokchilarini orasida banklar qonunchilik bilan ruxsat berilgan deyarli barcha moliyaviy vositalarida: aksiya, obligatsiya, depozit sertifikatlari va veksellarni emitent sifatida chiqarishdagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha muallif yondashuvlari va takliflari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** bank faoliyati, investitsion jozibadorlik, tijorat banklari, qimmatli qog'oz, diversifikasiya, foiz stavkasi, aksiya, obligatsiya, depozit sertifikatlari va veksellar

**Kirish.** Xalqaro kapital harakati ko'p jihatdan mamlakatlar milliy fond bozorining rivojlanish darajasiga bevosita bog'liq. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida fond bozorlari orqali investitsiyalarni jalb etishda milliy fond bozorlarining xalqaro tus olishi, globallashuv jarayonlarining jadallahuvi, global internet tarmog'iga ulanish va axborotlashtirish tizimining jadal rivojlanishi ta'sirida investitsiyalash ob'ektlari bo'yicha tezkor ma'lumotlar bazasiga ega bo'lish tendensiyalari kuzatilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida moliya-kredit tashkilotlari sifatida banklarga fond bozorida barcha operatsiyalarni amalga oshirishga ruxsat beriladi. Banklar va qimmatli qog'ozlar bozori mamlakat moliya tizimining eng muhim tarkibiy qismidir. Iqtisodiy rivojlanish nuqtai nazaridan bank tizimining ham, qimmatli qog'ozlar bozorining ham vazifalari vaqtincha bo'sh pul mablag'larini toplash, ularni qayta taqsimlash va milliy iqtisodiyotning eng foydali tarmoqlariga sarmoya kiritishdir. Vazifalarning tasodifiyligi, shuning uchun ularga erishish usullari banklar va qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa ishtirokchilarini moliyaviy resurslar uchun raqobatchilarga aylantiradi.

Hozirda jahon fond bozorlari jadal sur'atlarda kengayib borayotgan bir paytda fond bozori orqali investitsiyalarni jalb qilishda, qimmatli qog'ozlar bozorida zamonaviy moliyaviy vositalarni ishlab chiqish, investitsion faoliyatni qimmatli qog'ozlari hisobiga moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Banklarning fond bozoridagi faoliyatining xususiyatlarini va ularni belgilovchi omillarni ochib berish uchun quyidagilar zarur:

- 1) Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari tuzilishi va dinamikasini tahlil qilish.
- 2) Fond bozorida ayrim toifadagi banklarning operatsiyalari tuzilishi va dinamikasining xususiyatlarini o'rGANISH.

3) Banklarning qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalari dinamikasi va tuzilishini belgilaydigan sabablarni aniqlash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 may kuni qabul qilingan “2020–2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-sonli Farmonida, “qimmatli qog‘ozlar bozorida banklarning operatsiyalarini faollashtirish; tijorat banklari tomonidan korporativ obligatsiyalarni chiqarish va joylashtirish hamda boshqa instrumentlar uchun ma’muriy to‘sirlarni kamaytirish, bir vaqtning o‘zida nazoratni kuchaytirish; banklarning qimmatli qog‘ozlarini xalqaro kapital bozoriga chiqarish bo‘yicha huquqiy bazani yaratish” zarurligi belgilib berildi [1].

Fond bozori vositalaridan foydalanimish iqtisodiy qayta tuzilmalarning ko‘pgina yo‘nalishlarida yo‘lga qo‘ylgan. Jumladan, tijorat banklari tomonidan ipotekali kreditlashda, ilmiy sig‘imi ko‘p bo‘lgan ishlab chiqarishda, venchurli moliyalashtirishda, sug‘urta va pensiya ta’minotida hamda boshqa sohalarda. Shu bilan birga fond bozori nafaqat iqtisodiy siyosatning elementlaridan biri, balki o‘ziga xos tarzda bir qator iqtisodiy yo‘nalishlarni o‘zida umumlashtiruvchi kumulyativ element hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** So‘nggi yillarda tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarining tarkibiy xususiyatlarini o‘rganish yuzasidan bir qancha mahalliy va xorijiy olimlar izlanishlar olib borganlar. Xususan, xorijlik olimlar L.Gitman va M.Djonkning fikricha, qimmatli qog‘ozlar bozori - bu naqd pul yetkazib beruvchilar va iste’molchilar o‘rtasida bitimlar tuzish mexanizmidir, fond birjalari – bu muayyan qimmatli qog‘ozlarni sotib oluvchilar va sotuvchilarning o‘zaro munosabatlarini tashkil etadigan markazlashgan muassasadir[2].

R.Tyulz, E.Bredli, T.Tyulzlar qimmatli qog‘ozlar bozori va uning muhim bo‘g‘ini hisoblangan fond birjasi haqida fikr yuritib, qimmatli qog‘ozlarning alohida emissiyalari uchun barqaror bozorni yaratish, shubhasiz fond birjasining muhim vazifalaridan biridir. Barqaror bozorda qimmatli qog‘ozlar katta hajmda sotiladi va sotib olinadi, chunki joriy bozor narxlarida unchalik katta tebranishlar bo‘lmaydi, - deb ta’kidlaydilar [3].

Rossiyalik olima V.Nikiforovaning fikricha, qimmatli qog‘ozlar bozorining savdo tizimi bu qimmatli qog‘ozlarni sotishni tashkil etish shakllari va usullarining, shuningdek, ushbu jarayonlarga xizmat ko‘rsatadigan professional ishtirokchilarining yig‘indisidir [4]. V.Galanov va A.Basovlarning fikricha, umuman olganda, qimmatli qog‘ozlar bozori uning ishtirokchilarining qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va ularning muomalasi bo‘yicha iqtisodiy munosabatlarning majmui sifatida belgilanishi mumkin [5].

Mamlakatimizning soha olimlaridan biri I.L.Butikovning fikricha, “klassik ko‘rinishdagi fond birjasi - bu professional ishtirokchilar tomonidan uyushtirilgan, eng yaxshi qimmatli qog‘ozlarning doimiy ravishda amal qilib turuvchi ulgurji bozori bo‘lib, u savdo - sotiqning hamda qimmatli qog‘ozlar va brokerlarga savdolarga ruxsat berishning alohida tartib-tamoyillariga egadir” [6] - deya ta’riflagan.

Mamlakatimizning soha olimlaridan biri I.L.Butikovning fikricha, “klassik ko‘rinishdagi fond birjasi - bu professional ishtirokchilar tomonidan uyushtirilgan, eng

yaxshi qimmatli qog'ozlarning doimiy ravishda amal qilib turuvchi ulgurji bozori bo'lib, u savdo - sotiqning hamda qimmatli qog'ozlar va brokerlarga savdolarga ruxsat berishning alohida tartib-tamoyillariga egadir" [6].

Mahalliy olimlardan K.Tolipov, A.Obidov, S. Razzakovalarning ta'kidlashicha "mamlakatimizda amaldagi qonunchilikka asosan bank faoliyatini amalgaga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya vositachisi, investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchisi va investitsiya maslahatchisi sifatida kasbiy faoliyatni amalgaga oshirishga haqidirlar. Bunda tijorat banklari tomonidan qimmatli qog'ozlar bozoridagi kasbiy faoliyatni amalgaga oshirish uchun litsenziya olish talab etilmaydi"[7].

Xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida fond bozori tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozori, degan fikr uchraydi. Bunda asosiy fikr sifatida Hukumat tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar aksiyalar emas, balki qarz majburiyatları bo'lib, tijorat banklarining kapitalida aksiyadorning ulushini ifoda etadi [8].

A.Dozorov "o'z navbatida, qimmatli qog'ozlar tovarlar bozorida ham, pul bozorlarida ham muomalada bo'lib, pirovard natijada (tovar va fond bozorlarida) qimmatli qog'ozlar bozorini tashkil etadi" deya ta'kidlab o'tgan [9]. Shunday qilib, mazkur ta'rifdan kelib chiqadiki, fond bozori qimmatli qog'ozlar bozorining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu bozorda o'ziga xos maxsus tovar – moliyaviy qimmatli qog'ozlar bilan oldi-sotdi bitimlari amalgaga oshiriladi. Bizning nazarimizda, ushbu ta'rif fond bozori mazmunini batafsil ocha oladigan eng to'g'ri ta'riflardan biri hisoblanadi. Ko'pchilik mutaxassislar va iqtisodchi olimlar ham mazkur fikrning tarafdoi hisoblanadilar. Jumladan, M. Bakuninning fikricha, qimmatli qog'ozlar bozori – fond bozoriga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, ular o'z ichiga hamma qimmatli qog'ozlarni olmasdan, balki faqat fond qimmatliklarini, ya'ni investitsion qimmatli qog'ozlarni o'z ichiga qamrab oladi[10]. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, fond bozori korporativ moliyalashtirishda foydalilaniladigan aksiyalar va obligatsiyalar bilan bog'liq bo'lgan qimmatli qog'ozlarni hamda investitsion fondlarning qimmatli qog'ozlarini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, rasman qimmatli qog'ozlar bo'lmasada, qimmatli qog'ozlarga fyucherslar va opsonlar hamda fond indekslari kabi hosilaviy moliyaviy instrumentlarni kiritishadi. Ammo shuni ta'kidlash joizki, fond bozori moliya bozorining tarkibiy elementi sifatida moliya bozorining boshqa segmentlari holatiga sezilarli darajada ta'sir etadi.

Har bir mamlakat iqtisodiyotida o'zaro mutanosiblikni, barqaror rivojlanish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda hukumat bank-moliya tizimi orqali fond bozoridan hamda investitsiyalardan faol foydalanadi. Shuningdek, tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirishda fond bozori va investitsiyalar davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor maqsadlariga erishishda qulay shart-sharoitlar yaratadi. Ammo, ayni paytda dunyo iqtisodiyotida o'z yechimini to'liq topmagan ishsizlik darajasi, to'lov balansi, byudjet taqchilligi va tashqi qarzlarning o'sishi kabi makroiqtisodiy muammolar saqlanib qolmoqda. Ushbu jiddiy muammolarni bartaraf etishda dunyo iqtisodiyotida makroiqtisodiy siyosat bilan birga fond bozori va investitsiyalar samaradorligini keskin oshirish taqozo etiladi.


**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy

hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlil qilingan. Mavzuni o'rganish davomida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Bugungi kunda qimmatli qog'ozlar bilan birja savdolarini o'tkazish nafaqat investorlar balki, mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishida muhim o'rinnegallaydi. Qimmatli qog'ozlar bilan birja savdolarini o'tkazishning mohiyati shundaki, unda aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar kabi moliyaviy vositalarni sotib olish va sotish jarayonini tashkil etish hamda soddalashtirish jarayoni tushuniladi. Shuningdek, birja operatsiyalari umumiy hajmining 35,83 foizi bank sektori qimmatli qog'ozlari hissasiga to'g'ri kelgan. Ushbu soha emitentlari bilan tuzilgan bitimlarning umumiy hajmi 971,97 mlrd so'mni tashkil etgan.

Shuni ta'kidlash joizki, "2023 yilning 1 oktyabridan boshlab, davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan korxonalarning aksiyalari fond bozorida ommaviy taklif qilish orqali joylashtirilgandan so'ng mazkur korxonalar sof foydasining kamida 30 foizi (ayrim korxonalarning esa – 50 foizdan kam bo'lмаган sof foydasи) kamida yetti yil davomida dividend to'lashga yo'naltiriladi. Shu yo'sinda, aksiyadorlarga ushbu korxonalar aksiyalarini sotib olishda, agar kompaniya faoliyati ko'rsatilgan muddatda daromad keltirgan taqdirda, dividendlar olish kafolatlanadi".

O'zbekiston bank tizimi (tijorat banklari) mamlakatimiz qimmatli qog'ozlar bozoridagi savdo aylamanlari bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lsada, bizning fikrimizcha, mazkur holat ular uchun yetarli emas, chunki xorij amaliyoti, shuningdek ayrim MDH mamlakatlari bank tizimining qimmatli qog'ozlari bozoridagi operatsiyalarining hajmi bilan solishtiradigan bo'lsak bu ko'rsatkich judayam zaif holatda ekanligining guvohi bo'lamic. Quyidagi rasmda O'zbekiston bank tizimining investitsiya operatsiyalarini ayrim asosiy ko'rsatkichlarga (mamlakat YaIMga, bank tizimi aktivlariga, kreditlariga) nisbati berilgan.




**1-rasm. O'zbekiston bank tizimida investitsiyalarning ayrim asosiy ko'rsatkichlarga nisbati<sup>24</sup>**

Yuqoridagi 1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, O'zbekiston banklarining

<sup>24</sup> O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi va Markaziy banking statistik ma'lumotlari (2024y.) asosida muallif tomonidan tuzildi

qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalarining hajmi mamlakat YaIMga nisbati tahlil etilayotgan davrda 2,0 foizga ham yetmayapti, ushbu ko'rsatkichni mamlakat bank tizimi aktivlariga nisbatini ko'radigan bo'lsak, 2024 yil 1 yanvardan boshlab pasayishi tendentsiyasiga ega bo'lган yoki 2,51 punktga pasaygan. Deyarli xuddi shu holatni, jami investitsiyalarni bank tizimining kreditlariga bo'lган nisbatida ham kuzatishimiz mumkin.



**2-rasm. "Mikrokreditbank" ATB ning qiimmatli qog'ozlarga investitsiyalari<sup>25</sup>**

Yuqorida keltirilgan 2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, "Mikrokreditbank" ATBning qiimmatli qog'ozlarning turlari bo'yicha amalga oshirgan investitsiya operatsiyalari xususiy korxonalarning aktsiyalari va boshqa qimmat qog'ozlar bo'yicha barqaror ko'rsatkichga ega bo'lib, tahlil qilingan davr davomida nisbatan barqaror darajada bo'lган.

"Mikrokreditbank" ATB 2024 yil boshlab davlatning obligatsiyalariga qilgan investitsiyalari sezilarli darajada yuqori bo'lган (115,3 mlrd so'm). Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, bank moliya bozoridagi ishtiroki orqali likvidililik qobiliyati barqarorligi va mustahkamligini ta'minlashga e'tibor bermoqda deyishimiz mumkin. Biroq, bank shu davrdan boshlab xususiy obligatsiyalarga qilayotgan investitsiya operatsiyalarini to'lig'icha to'xtatishga qaror qilgan, buning asosiy sababi, fikrimizcha bankka ushbu operatsiyaning keltirayotgan daromadi uni qoniqtirmagan, shuningdek, balki xususiy korxonalarning qiimmatli qog'ozlari moliya bozoridagi nufuzi pasayish holatlari yuz bergen bo'lishi mumkin.

Tijorat banklarining qiimmatli qog'ozlar bozoridagi emissiya va vositachilik operatsiyalari banklarning umumiyligi faoliyatida muhim o'rinni tutadi. Ushbu operatsiyalar orqali banklar qo'shimcha daromad olish, bozor ishtirokchilari bilan yaqin aloqalarni o'rnatish va moliyaviy vositalarni diversifikatsiyalash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Biroq, ushbu operatsiyalar bilan bog'liq xavflar ham mavjud bo'lib, banklar bu xavflarni boshqarish uchun tegishli choralarni ko'rishlari lozim. Shu bilan birga, qiimmatli qog'ozlar bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish banklarning moliyaviy barqarorligi va umumiyligi iqtisodiyotning rivojlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

<sup>25</sup> "Mikrokreditbank" ATBning veb-sahifasiga joylashtirilgan moliyaviy hisobotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

O'zbekiston fond bozorlarida mavjud banklarning o'rni<sup>26</sup>

Ishtirokchi	Vazifa
<b>Emitent sifatida</b>	Aktsiyalar, obligatsiyalar, depozit sertifikatlari, bank veksellari va boshqa qonunda ko'zda tutilgan qimmatbaho qog'ozlar
<b>Sarmoyador sifatida</b>	Davlat yoki boshqa xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanadigan sub'ektlarning qimmatbaho qog'ozlariga egalik qilish
<b>Fond bozorining professional ishtirokchisi sifatida</b>	O'z mijozlariga dilerlik, konsultativ, depozitar hamda qimmatbaho qog'ozlarni boshqarish borasidagi xizmatlarni ko'rsatish

Banklarning emitent sifatidagi faoliyatini o'rganib chiqish natijasida, butun mamlakatdagi aktsiyador kapitalining 13,3 foizi aktsiyador banklar hissasiga to'g'ri kelishi aniqlandi.

Respublikadagi barcha aktsiyador banklarining O'zbekiston respublikasi depozitariyida tasdiqlangan aktsiyalarni chiqarilgan hajmiga ko'ra 3 qismga ajratish mumkin: yirik - 10 mld. so'm miqdoridan yuqori qiymatdagi aktsiyalar emissiyasi, o'rta - 3-10 mld. so'm miqdoridagi aktsiyalar emissiyasi, kichik - 3 mld. so'm miqdoridagi emissiya hajmi. 2024 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, 16 ta yirik banklarga barcha emissiya qilingan aktsiyalar nominal qiymatining 90,6 foizi to'g'ri keladi, 8 ta o'rta banklarga - 8,5 foiz va 3 ta kichik banklarga esa 0,9 foizi to'g'ri keladi.

2024 yildan tijorat banklari uchun qaytadan muomalaga chiqarilgan aktsiyalar hajmining 25 foizidan kam bo'lмаган miqdordagi hajmini oshkora tarzda fond birjasiga chiqarilishi ko'zda tutilgan edi. Bu chora-tadbir natijasida banklarning aktsiyalar savdosi sezilarli tarzda jonlandi. Hozirga kunga kelib "Toshkent" Respublika Fond birjasining ro'yxatidagi 28 nafar emitentdan 22 tasi banklar hisoblanadi.


Iqtisodchi olim Ya.M.Mirkinning fikricha bugungi kun sharoitida fond bozori tizimli xususiyatga egaligiga shubha yo'q va bu qimmatli qog'ozlar bozorga berilgan tavsifda o'z aksini topgan bo'lib, unga ko'ra, fond bozori "yuksak darajada yaxlik va tugallangan texnologik sikllardan iborat murakkab tashkiliy-iqtisodiy sikldir" [11].

E.Muxanova tomonian turli xususiyatlarga ega bo'lgan bozorlarga xizmat ko'rsatuvchi segmentlardan iborat yagona tizim ekanligi va bozor infratuzilmasini shunday talqin qilish tarafдорлари hisoblanadi [12].

Tijorat banklarining o'z aktsiyalarini chiqarishlari asosida bir qator majburiyatlar yotadi, jumladan, eng asosiysi bank passivini shakllantirish zaruriyati. Inflyatsiya, xususiy kapitalning doimiy tarzda qadrsizlanishi banklarni uzoq muddatli depozitlarni jalb etish imkoniyatidan mahrum etadi, natijada uzoq muddatli qo'yilmalarni amalga oshirishda xususiy kapitaldan foydalanish zarurati vujudga keladi. Shuni ta'kidlash joizki, banklar ustav kapitalni oshirish hamda qo'shimcha aktsiyalarni chiqarishdan aktsiyadorlar ulushini qayta tizimlashda ham

<sup>26</sup> Muallif ishlanmasi

foydalanimishmoqda. Va nihoyat, amalga oshirilishi zarur bo'lgan nazorat qiluvchi organlar tomonidan chiqarilgan banklar uchun qarorlar, iqtisodiy normalar hamda tijorat banklarining ustav kapitalining eng kam miqdoridagi talablar mavjud. Qayta tuzilayotgan banklar uchun ustav kapitalining eng kam miqdori normasi quyidagicha: tijorat banklari uchun 5 mln. yevro, xususiy banklar uchun esa 2,5 mln. evro miqdorida tashkil etadi.



**3-rasm. Tijorat banklari resurslarini samarali boshqarish orqali investitsion faoliyatini oshirish<sup>27</sup>**

Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini rivojlantirish kontseptsiyasining amaliyatga joriy etilishi respublikamiz banklarning qimmatli qog'ozlari bozoridagi faoliyatini mustahkamlashga, ularning ushbu bozordagi barqaror moliyaviy manbalarni shakllantirishga, iqtisodiy o'sishga va aholi turmush farovonligini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar natijasiga ko'ra, tijorat banklarining investitsion jozibadorligiga ularning dividend siyosati kuchli ta'sir ko'rsatadi. Chunki, tijorat banklari tomonidan xaqiqatda to'lanadigan dividendning real miqdori dividend siyosatini amalga oshirishda qo'yiladigan asosiy masalalardan hisoblanadi. Bankning aktiv operatsiyalaridan olinadigan daromadlarning ko'payishi uning rentabellik darajasiga va, pirovardida, uning dividend siyosatiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Demak, dividendlar sof foyda hisobidan to'lanadi va bank moliyaviy – xo'jalik faoliyatida sof foydaning yuzaga kelmasligi dividendlarning to'lanmasligiga va uning oqibatida bank aktsiyalarining bozor bahosining pasayishiga sabab bo'ladi. Ko'pchilik hollarda, bank aktsiyalarining bozor bahosining pasayib ketishi aktsiyadorlar

<sup>27</sup> Muallif ishlanmasi

томонидан актисиаларни qaytarib topshirilishiga sabab bo'ladi. Bu o'z navbatida, bankning ustav kapitalining miqdorini kamayishiga olib keladi. Agar ustav kapitalini barqaror moliyalashtirish manbai ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, ushbu holat bankning to'lovga qobiligi va likvidlilikiga salbiy ta'sir qilishini kuzatishimiz mumkin.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, tijorat banklarining investitsion jozibadorligini ta'minlash bir nechta asosiy jihatlarni o'z ichiga olgan keng qamrovli jarayondir. Usunu jarayonda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur. Birinchidan, aktivlar rentabelligi (ROA) va kapital (ROE) ko'rsatkichlarini tahlil qilish, amortizatsiya uchun muammoli kreditlar va zaxiralar darajasini aniqlash, bankning majburiyatlarni bajarish uchun aktivlarni tezda naqd pulga aylantirish qobiliyati shakllantirish. Ikkinchidan, kapitalning aktivlarga nisbati va tartibga solish talablarini bajarish uchun kapitalning etarligi, aktsiyalar yoki obligatsiyalar chiqarish orqali qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish. Uchinchidan, bozorda samarali joylashish, bankning ijobiy imidjini yaratish, mijozlar uchun sodiqlik dasturlarini ishlab chiqish. Bank faoliyatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan makroiqtisodiy omillarni (inflyatsiya, ishsizlik darajasi, iqtisodiy o'sish) baholash.

Ushbu omillarning muvaffaqiyatli kombinatsiyasi tijorat banking investitsion jozibadorligini sezilarli darajada oshirishi va institutsional va xususiy investorlarni jalb qilishda muhim o'rinni egallaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 май қуни қабул қилинган “2020–2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида”ги ПФ-5992-сонли Фармони.
2. Гитман Л.Дж., Джонк Майл Д.. Основы инвестирования. – М.: Издательство “Дело”, 1997.- С.41-44. 8
3. Тьюлз Р., Брэдли Э., Тьюлз Т. Фондовый рынок. – 6-е изд.: Пер. С англ. – М.:Инфра-М, 1997.- С.101
4. Никифорова В.Д. Торговые системы рынка ценных бумаг - Учебное пособие (<https://uchebnikonline.net/book/203-torgovye-sistemy-rynka-cennyx-bumag-uchebnoe-posobie-nikiforova-vd/33-71-analizsovremenneyx-tendencij.html>)
5. Рынок ценных бумаг: Учебник / Под ред. В.А.Галанова, А.И.Басова. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Финансы и статистика, 2005. –С.191
6. Бутиков. И.Л Қимматли қоғозлар бозори. –Т.: Консаудитинформ, 2001.- Б. - 288.
7. Толипов К., Обидов А., Раззакова С. Қимматли қоғозлар бозори саволлар ва жавобларда. – Т.: Консаудитинформ-Нашр 2010.
8. Тьюлз Дж., Брэдли Э.С., Тьюлз Т. Фондовый рынок. М: ИНФРА-М, 1999, С.16.
9. Дозоров А., Чем торгуют на фондовом рынке, сайт компании «БКС» [www.bcs.ru](http://www.bcs.ru)
10. Бакунин М., Соотношение фондового рынка и рынка ценных бумаг. М.:Хозяйство и право.-1996, №5, С.111-112.
11. Миркин Я.М. Ценные бумаги и фондовый рынок. М.:Перспектива.-1995.- С.13.

12. Муханова Е.Б. Теоретические основы и пути формирования рыночной инфраструктуры. М.-1994.-С.5.